01

Yaxshiyev Shahzod
Sherali o'g'li

# HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINING NAZARIY ASOSLARI

*Hayot faoliyati xavfsizligi*



# MA’RUZA REJASI:



| | |
|---|---|
| 01 | FANNING KELIB CHIQISH TARIXI, FANNING TARKIBI, FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI |
| 02 | HFXNING AKSIOMALARI VA UNING ISTIQBOLI HAQIDA |
| 03 | HFX TO‘G‘RISIDA TA’LIMOT, YASHASH MUHITI, TEXNOSFERA HAQIDA TUSHUNCHA |

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

Yaxshiyev Shahzod
Sherali o'g'li

Yaxshiyev Shahzod
Sherali o'g'li

# TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

- *xavf;*
- *xavfsizlik;*
- *faoliyat;*
- *sabab;*
- *monitoring;*
- *yashash muhiti;*
- *texnosfera;*
- *biosfera;*
- *texnogen xavflar;*
- *antropogen xavflar;*
- *jarohat;*
- *zararli omillar;*
- *kasbiy kasalliklar;*
- *modda;*
- *energiya va informatsiya oqimi;*
- *hayotiy faoliyat;*
- *yashash muhiti;*
- *komfort holat;*
- *yo‘l qo‘ysa bo‘ladigan holat;*
- *xavfli holat;*
- *favqulodda xavfli holat;*
- *disografik portlash;*
- *urbanizatsiya;*
- *texnogen avariya;*
- *falokatlar.*

# MAVZUGA OID ASOSIY MUAMMOLAR:

| BIOSFERADAN TEXNOSFERAGA O'TISH | IQLIM O'ZGARISHI | “ODAM – YASHASH MUHITI” |
|---|---|---|
| *Ma’lumki, oxirgi yillarda* ***biosfera*** *o‘rnini jadallik bilan* ***texnosfera*** *egallab bormoqda, bu insoniyat yashash muhitining tobora yomonlashishiga olib kelmoqda.* ***Buning oldini olish uchun odamzot nima qilishi kerak?*** | ***Ozon qatlami****ning yemirilishi,* ***atmosfera*** *havosining o‘rtacha haroratini tez sur’atlarda ko‘tarilib borishi, muzliklarning jadal erib borishi* ***odamzot*** *boshiga turli-tuman falokatlarni olib kelmoqda.* ***Bundan qanday qutulish mumkin?*** | ***Odam*** *bilan uning* ***yashash muhiti*** *orasidagi munosabatlarning buzilishi.* ***“Odam – yashash muhiti”*** *sistemasidagi xavfli va favqulodda xavfli holatlarni yaxshilash.* ***Texnogen avariya*** *va* ***falokat****larni kamaytirish va bartaraf qilish muammolari.* |

# TALABALAR UCHUN IDENTIV O‘QUV MAQSADLAR:

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

| 01 | 02 | 03 | 04 | 05 | 06 |
|---|---|---|---|---|---|
| ***HFX fani*** *haqida ma’lumot bera oladi.* | ***HFX*** *fanining kelib chiqish tarixi va boshqa fanlar bilan bog‘liqligini izohlay oladi.* | *Xavf, xavfsizlik, faoliyat, modda, energiya va informatsiya oqimlari, texnosfera haqida ma’lumot bera oladi.* | *Yashash muhiti haqida ma’lumot bera oladi.* | ***“Odam – yashash muhiti”*** *sistemasidagi komfort, yo‘l qo‘ysa bo‘ladigan, xavfli va favqulodda xavfli holatlarga baho bera oladi.* | *Texnosferadagi texnogen avariya va falokat sabablarini tushuntirib bera oladi.* |

# HFX FANINING KELIB CHIQISH TARIXI

Bu fan 1976-yilgacha **“Xavfsizlik texnikasi”** deb va 1990-yilgacha **“Mehnat muhofazasi”** deb atalib kelgan.

U quyidagi bo‘limlardan iborat edi:

- *1. Mehnat muhofazasining huquqiy asoslari;*
- *2. Mehnat gigienasi va sanoat sanitariyasi;*
- *3. Xavfsizlik texnikasi;*
- *4. Yong‘in xavfsizligi.*



Yaxshiyev Shahzod
Sherali o'g'li

# HFX FANINING TARKIBI



**1990-yil 9-iyul**dagi *O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim Vazirligi*ning 473-buyrug‘iga binoan yangi **HFX fani** joriy qilindi. Bu fan tarkibi bo‘yicha **4 qism**dan iborat:

- *1-qism. HFX ning nazariy asoslari;*
- *2-qism. HFX ning tabiiy aspektlari, (ekologiya);*
- *3-qism. HFX mehnat sharoitida, (mehnat muhofazasi);*
- *4-qism. HFX favqulodda holat sharoitlarida, (fuqaro muhofazasi)*

# FANNING MAQSADI VA VAZIFASI

**Fanning maqsadi** – *inson faoliyatining har qanday sharoitdagi xavfsizligini o‘rganishdir.*

**Fanning vazifasi** - *bo‘lg‘usi mutaxassislarga xavflarning turlari va ulardan muhofazalanish usullarini o‘rgatish.*



# FANNING O'QITILISH ZARURATI

## Ushbu fan oldin qanday o'qitilgan?

Ilgari bu fan alohida-alohida bir-biriga bog'lanmagan holda o'qitilar edi. Masalan, **ekologiya** – *umumiy muhandislik fani sifatida*, **mehnat muhofazasi** – *insonning mehnat sharoitidagi xavfsizligini*, **fuqaro muhofazasi** esa *insonning favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligini ta'minlash* masalalarini o'rganar edi, xolos. **Uning tarbiya muhiti, ruhiyati va boshqa ko'pgina omillar hisobga olinmas edi**. Ma'lumki insonning hamma aktiv harakati (mehnat jarayoni, dam olishi, sport bilan shug'ullanishi va h.k.) uning faoliyatini tashkil qiladi.

## Xavf-xatarlarning kelib chiqish sabablari

Alloh taolo insonni yaratganda uni rizqi bilan yaratgan. Lekin u rizqini o'z **mehnati bilan** topishi kerak. Bu yo'lda u ko'pgina **xavf-xatarlar**ga uchraydi. Hozirgi vaqtda inson **tabiiy, texnik, iqtisodiy** va boshqa ko'plab **xavf-xatarlar dunyosi**da yashaydi. Bularga bardosh bera olmagan hayotdan ko'z yumadi.

Bundan tashqari, tabiatda **ofatlar, yer qimirlashi, suv toshqini, tayfunlar, yong'inlar, tog' siljishlari** va boshqalar bo'lib turadi. Bular inson faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda yuz bersa, inson faoliyati bilan bog'liq **portlashlar, avariyalar, yong'inlar** va boshqa **yirik ko'ngilsiz voqealar** bo'lib turadi.

# XAVF-XATARLARGA MISOLLAR

| SODIR BO'LGAN SANASI | QANDAY SODIR ETILGANLIGI |
|---|---|
| *1992-yil 3-mart* | **“Moskva-Riga”** poyezdlarining to‘qnashuvi |
| *1992-yil avgust* | **Janubiy Qirg‘iziston**dagi yer qimirlashi |
| *1992-yil* | **Ukraina** shaxtasidagi portlash |
| *1984-yil* | **Bxopal (Hindiston)** shahrida **AQSH**ning **"Yunion-Karbayd"** zavodida **metilizotsionat** zaharli gazining sizib chiqishi |
| *1988-yil 20-dekabr* | **Tablas /Fillipin/** bo‘g‘ozida kemalar to‘qnashuvi |
| *2004-yil* | **Tinch** okeanidagi sunami |
| *2010-yil* | **Gaiti** orolidagi zilzila |
| *2010-yil fevral* | **Chili**dagi zilzila |